



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOLLABORATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Joldasbaeva Gulbadan Baltabaевна

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200962>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 13-may 2026 yil

Nashr qilindi: 15-may 2026 yil

KEYWORDS

empatiya, ochiq fikr almashish, hamkorlik muhiti, do'stona munosabat, o'zaro tushunish, ahil muhit, o'zaro qo'llab-quvvatlash, kollaborativ texnologiyalar, guruhli ish, interfaol metodlar.

ABSTRACT

Maqolada ta'lim sifatini oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kollaboratsiya muhitini yaratish darsni tashkil etishning samarali shakli sifatida tahlil qilinadi, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, ushbu omillar ta'sirida o'quvchilar kelajakda nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga, balki ijtimoiy hayotda samarali hamkorlik qila oladigan, mas'uliyatli va ijodkor shaxs sifatida rivojlana olishlari xususida fikr yuritiladi.

Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldiga nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasi ham qo'yilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, muloqotga kirishishi va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kollaborativ kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kollaborativ kompetensiya — bu o'quvchining boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish, umumiy maqsad yo'lida birgalikda faoliyat yuritish, o'zaro hurmat va mas'uliyat asosida ishlash qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish kelgusida ularning shaxsiy va kasbiy faoliyatida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi nostandart muhitda, bolalar bilan jonli muloqot jarayonida bo'ladi, bunda har bir yangi vaziyat ijodiy va original yechimni talab etadi. Shuning uchun o'z ijodiy darajasi va kompetensiyasini oshirish uchun nafaqat olinadigan ma'lumotlar hajmini, foydalaniladigan ish shakllari va usullari sonini, yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llashni ko'paytirish, balki atrofida tizimli ravishda o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi rivojlantirishga undaydigan sharoitlarni yaratish zarur.

Boshlang'ich sinf darslarida hamkorlik muhitini yaratish ta'lim sifatini oshirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Hamkorlik muhiti - muammoni hal qilish, topshiriqni bajarish yoki mahsulot yaratishda guruhlar va o'quvchilarning hamkorlikda ishlashini nazarda tutuvchi ta'lim usuli.

Metodologiya

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrda 726-son qaroriga muvofiq bugungi kunda darslik va o'quv-metodik majmualar sifatiga qo'yilayotgan talablarning ortishi ularni yaratish jarayoniga matbaa sohasining so'nggi yutuqlarini qo'llash, o'quvchilarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz, foydalanish uchun qulay bo'lgan matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish, ushbu faoliyatni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrda PF- 6108-son Farmoniga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus hamda professional ta'lim sohasida foydalaniladigan matbaa mahsulotlarining xavfsizligiga qo'yiladigan talablarni belgilash, foydalanuvchilarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish, shuningdek, nashr etilayotgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarning matbaa sifatini ilg'or xorijiy tajriba asosida yanada oshirish maqsadida hamda ushbu farmonning 1-bandiga muvofiq dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilab qo'yilgan[1]. Ushbu bandga ko'ra va 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuv metodologiyasi (bu-bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi) inobatga olinib 2023-2024-o'quv yilida 1-4 -sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab o'quv darsliklari yaratildi.

Natijalar

Tajriba davomida aniqlanishicha, kollaborativ kompetenciya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirdi, ular mustaqil fikrlashga va o'z fikrini erkin ifodalashga intila boshlashdi.

Hamkorlikda ishlashda ta'lim oluvchilar axborotni birgalikda izlash, tushunish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun qo'llash orqali bilim oladi, bir-biriga yordam beradi, shuningdek, o'qituvchi o'z o'quvchilariga yaqinlashishi, ularni eshitishi, tushunishi, ularning faoliyatini baholashi mumkin. Shuningdek, do'stlarini qo'llab-quvvatlash va yordam berish orqali o'zaro hamkorlik, hamjihatlik va o'zaro tushunish hissini shakllantiradi.

Kollaborativ kompetensiya o'quvchilarning:

jamoada ishlashi;

bir-birini tinglashi;

fikr almashishi;

nizolarni hal qilishi;

vazifalarni taqsimlay olishi;

umumiy natija uchun javobgarlikni his qilishi kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

O'zaro yordam do'stona munosabatlarni shakllantirish, ishonchni mustahkamlash, darsda hamjihatlik muhitini yaratishning asosi hisoblanadi.

Bolalar bir-birining qo'llab-quvvatlashi va yordamiga tayanishi mumkinligini bilsa, munosabatlarda xavfsizlik va ishonch hissi paydo bo'ladi. Bu aloqani mustahkamlashga, qiyinchiliklarni birgalikda yengishga yordam beradi. Bolalar bir-biriga yordam berish va qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lgan sodiqlik munosabatlari o'quv muammolarini birgalikda hal qilish imkonini beradi. O'zaro qo'llab-quvvatlash va anglashuv barqaror va baxtli munosabatlar uchun zamin yaratadi.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quvchisining o'quv faoliyatida boshlang'ich ta'limning hozirgi sur'atlari jarayonning o'ziga va uning pirovard natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan o'zaro tushunish va do'stona muhitni shakllantirishni taqozo etadi.

Kollaboratsiya muhiti - bu o'qituvchi tomonidan nafaqat axborot ko'lamini o'z vazifalari va maqsadlari bilan olib yuruvchi o'qituvchi sifatida, balki har bir o'quvchining samarali faoliyati uchun sharoit yaratishga intiluvchi yordamchi sifatida yaratiladigan muhitdir. Bunday muhitda o'quvchiga fiziologik va psixologik jihatdan qulay bo'lishi kerak.

Kollaborativ kompetensiyalarni shakllantirishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi. U:

qulay psixologik muhit yaratishi;

o'quvchilarni teng faoliyatga jalb qilishi;

hamkorlikni rag'batlantirishi;

nizoli vaziyatlarni boshqarishi zarur.

Shuningdek, o'qituvchi baholash jarayonida faqat natijani emas, balki hamkorlik jarayonini ham inobatga olishi kerak.

Bolalarga ta'lim berishda lider sifatida o'qituvchi yaratgan sharoitlar zarur. Bunga, birinchi navbatda, sinf jamoasida o'quvchilarning teng huquqli o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan turli strategiyalarni joriy etish va qo'llash yordam berishi mumkin.

Kollaborativ kompetensiyalarni shakllantirish metodlari:

Guruhli ishlar

Guruhli ishlar o'quvchilarning birgalikda muammoni hal qilishiga yordam beradi. Kichik guruhlarda ishlash davomida bolalar o'z fikrlarini erkin ifodalaydi, boshqalarning fikrini tinglaydi va umumiy qarorga kelishni o'rganadi.

Juftlikda ishlash

Bu metod ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali hisoblanadi. Juftlikdagi faoliyat tortinchoq o'quvchilarning ham darsda faol qatnashishiga imkon yaratadi.

Rolli o'yinlar

Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtiradi. Bu esa ularda empatiya, muloqot madaniyati va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihaviy ta'lim

Loyiha asosida ishlash o'quvchilarda mas'uliyat, rejalashtirish va jamoada ishlash malakalarini rivojlantiradi. O'quvchilar umumiy loyiha ustida ishlash orqali bir-biriga yordam berishni o'rganadilar.

Interfaol metodlar

"Aqliy hujum", "Klaster", "Sinkveyn", "Baliq skeleti" kabi interfaol metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, hamkorlik muhitini yaratadi.

Munozara

Olingan natijalar kollaborativ kompetensiya boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligini o'qitishda qo'llanilishi ta'lim sifatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Darsning har bir bosqichida birgalikda bilim olish uchun sharoit yaratiladi. Dars boshida o'qituvchi o'quvchilar bilan kerakli aloqani o'rnatish uchun "Men senga tilak tilayman," "Bir-biringizga, o'zingizga kulgi bering," "Shodlik halqasi" o'yinlaridan foydalanishi mumkin. Salomlashish o'yinlaridan foydalanish bolalarning ishga bo'lgan kayfiyatini ko'tarishga, ularni faol hamkorlikka yo'naltirishga imkon beradi. Boshlang'ich bo'g'in o'quvchilari barcha topshiriqlarni sidqidildan bajaradigan yoshda bo'ladi. Bolalar ochiq ko'ngil, yaxshi tilakdosh, ochiq-oydin fikr bildiradi. Boshlang'ich ta'limning yana bir jihati iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni hamkorlikda o'qitish bo'lib, bunda o'qituvchi tayanch figura sifatida muammoli savolni shakllantirish ustida muntazam ishlashi, ushbu muammoni yechish jarayoni har bir o'quvchini bevosita o'ziga jalb etishi zarur. Pedagogning o'quvchilarni hamkorlikda fikrlashga undash qobiliyati - yangilikni bilishda mahsuldorlikning garovi.

Darslarda "Sandiq," "Umid chirog'i," "Aylanma doira" va boshqa strategiyalardan foydalanish bunga misol bo'la oladi.

Bunday darslarda o'quvchilar nafaqat yordam berishga, hamkorlik qilishga va birgalikda yutuqlarga erishishga tayyor ekanliklari haqida, balki kollaboratsiya muhitida o'zlari qanday ko'rishni, his qilishni, yaratishni xohlashlari haqida ham gapiradilar.

Shuningdek, guruhlarni tuzishda "Quvnoq hisob" o'yinidan foydalanish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlarni aytadi. Jamoa bo'yicha berilgan songa mos bo'lgan guruhlar tuzilishi kerak. Shundan so'ng ishni yanada muvaffaqiyatli tashkil etish uchun guruhdagi xulq-atvor qoidalari muhokama qilinadi. Guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash "Matn to'pla," "Javob topish," "Topishmoq to'pla," "Uyga vazifa bo'yicha ma'lumot almashish," "Xatoni topish," "Moslikni o'rnatish" kabi o'yinlar o'quv motivatsiyasini oshiribgina qolmay, darsning maqsad va vazifalarini ishlab chiqishda ishtirok etishni tavsiya etadi. O'quvchilarni tadqiqot, izlanish va ijodiy ishlarga jalb etish.

Yangi tushunchaga duch kelganda ular taxminlarni ilgari surishga harakat qiladilar, o'rtoqlari bilan muhokama qilib bo'lgach, muammoni birgalikda shakllantiradilar va yechish yo'llarini belgilaydilar.

Fizminutka darslarida ko'z uchun mashqlar o'tkazish mumkin. Bularning barchasi darsda hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Albatta, dastlab ishni tashkil etish juda qiyin bo'ladi.

Darsda shovqin bo'ladi, vaqt yetishmaydi, ayrim o'quvchilarning faolligi yetishmaydi. Lekin ish ijobiy hissiyotlarga asoslanadi. Shunday qilib, o'qituvchi o'z sinfining o'quvchilariga sharoit yaratadi va shu vaqt davomida ular o'rtasida ishonchli munosabatlar shakllanadi. Bu qiyinchiliklarga qaramasdan, har bir o'qituvchi o'z darslarida kollaboratsiya muhitini yaratishga majbur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kollaboratsiya muhiti har bir individ hayotidagi muloqot, o'zini namoyon qilish, boshqalarni qo'llab-quvvatlash, boshqalarning ishlarini kuzatish kabi muhim ko'nikmalarning paydo bo'lish manbai hisoblanadi.

O'quvchilarning ongli xulq-atvori o'qituvchining o'quvchilardan nimalarni talab qilishini samarali bilish va tushunish natijasidir. Va, aksincha, pedagog

"O'quvchi ovozi"ni eshitib, o'quv jarayoniga samarali ta'sir etishi mumkin bo'lgan istak va talablarni hisobga olishi kerak.

Zamonaviy hayot shiddati har bir shaxsning funksional bilimlari ta'lim tizimini taqozo etmoqda.

Bolalar jamoasidagi kollaborativ hamkorlik - o'quvchining zamonaviy jamiyatga moslashuvi, muvaffaqiyatli va samarali hamkorlikka qobiliyati vositasidir.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kollaborativ kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik ahamiyati, samarali metodlari va ta'lim jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, muloqot qilish va jamoada faol ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari tahlil qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son.<https://lex.uz/ru/docs/-5085999>.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
4. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2019.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. — Toshkent, 2016.
6. Ziyonet ta'lim portali materiallari.
7. Adilova M.F. (2022). Innovation yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish. Integration of science, Education and practice. Scientific-methodical journal, 3(7), 99-106.
8. Adilova M.F. (2022). Methods of Innovation Approach to Forming Communicative Competence of Future Educators. Eurasian Scientific Herald, 10, 53-58.
9. Adilova M.F. (2022). Psychological and pedagogical factors of innovative approach to the formation of communicative competence of the future teacher. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 304-308.
10. Адилова М.Ф. (2021). Формирование экологической культуры у учеников начального образования на основе медиатехнологий. Science and Education, 2(6), 543-546.
11. Адилова М.Ф. (2020). Реформы в образовании Узбекистана: состояние и перспективы. Science and Education, 1(7), 452-455.
12. Adilova M.F. & Ergasheva, G.M., Sotiboldieva S.J., (2020). Comprehensive approach to assessing students' knowledge in primary school based on the
13. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Scientific progress. Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. - Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
14. Salayeva M.S., Shoyunusova F.S. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari // Academic research journal, 1(5). 2022. -Pp.9-14. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7227181>
15. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // Problems And Scientific Solutions. - Australia, Melbourne. 2022. - B. 114-123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>

16. Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyatning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixik rivojlanishiga ta'siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. - В.432-441.



INNOVATIVE
ACADEMY